



ISSN 2181-6833

# PEDAGOGIK MAHORAT

5  
2021



# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**5-son (2021-yil, oktabr)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2021**

## PEDAGOGIK MAHORAT

### Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021, № 5

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zarur nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy  
Elektron manzil: ped\_mahorat@umail.uz

**TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Mas'ul kotib:** Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N.Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*

*Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent*

## ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

№ 5, 2021

Журнал включен в список обязательных выпусков ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан на основании Решении ВАК от 29 декабря 2016 года для получения учёной степени по педагогике и психологии.

Журнал основан в 2001г.

Журнал выходит 6 раза в год

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

**Учредитель: Бухарский государственный университет**

**Адрес редакции:** Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

e-mail: ped\_mahorat@umail.uz

### РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Главный редактор:** Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

**Заместитель главного редактора:** Навруз-заде Бахтиёр Нигматович – доктор экономических наук, профессор

**Ответственный редактор:** Хамраев Алижон Рузикулович – доктор педагогических наук (DSc), доцент

*Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук, профессор*

*Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор*

*Махмудов Мэлс Хасанович, доктор педагогических наук, профессор*

*Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор*

*Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)*

*Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор*

*Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор*

*Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)*

*Чудакова Вера Петровна, PhD (Психология) (Киев, Украина)*

*Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор*

*Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор*

*Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор*

*Дурдыев Дурдымурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор*

*Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор*

*Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор*

*Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор*

*Каххаров Отабек Сиддикович, доктор экономических наук (DSc), доцент*

## PEDAGOGICAL SKILLS

### The scientific-theoretical and methodical journal

№ 5, 2021

The journal is submitted to the list of the scientific journals applied to the scientific dissertations for **Pedagogic** and **Psychology** in accordance with the Decree of the Presidium of the Ministry of Legal office of Uzbekistan Republic on Regulation and Supervision of HAC (The Higher Attestation Commission) on December 29, 2016.

The journal is published 6 times a year

The journal is registered by Bukhara management agency for press and mass media in Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

**Founder: Bukhara State University**

**Publish house:** Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

e-mail: ped\_mahorat@umail.uz

#### EDITORIAL BOARD:

**Chief Editor:** Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

**Deputy Editor:** Pedagogical Sciences of Economics, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade.

**Editor:** Doctor of Pedagogical Sciences( DSc), Asst. Prof. Alijon R. Khamraev

*Doctor of Economics Sciences Obidjan X. Xamidov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzakbai Sh. Begimkulov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Mels Kh. Mahmudov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holby I.Ibrahimov*

*Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova*

*Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)*

*Ph.D. of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev*

*Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva*

*Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev*

*Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov*

*Doctor of Economics Sciences Otabek S.Kahhorov*

Muyassar MAHMUDOVA. Oilaviy ziddiyatlarni boshqarish va bartaraf etish .....	150
Azamat NAZAROV. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishning psixologik modellari va texnologiyalari .....	153
Xo'jageldi ALIMOV. Tasavvuf ahliga va asarlariga to'laonli yondashuv .....	157
Nargiza G'AYIBOVA. O'smirning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shakllanishida sibling maqomining o'rni .....	159
Alisher JABBOR. Diniy ma'lumotlarni tushunish xususiyatlari shaxs kognitiv differentsiya mezonini sifatida .....	162
Mushtariy ISAYEVA. Oila funksiyalarining diniy-psixologik aspektlari .....	165
Sarvar QAXXOROV. Diniy mutaassiblik muammosining psixologiyada o'rganilganlik darajasi .....	169
M. AKRAMOV. Ekologik ong shakllanishini o'rganishning psixologik masalalari.....	171
Gulbarno SODIQOVA. O'smirlar mustaqil qaror qabul qilishida diniy-psixologik omillarining amaliy tadqiqi.....	174
Dildoraxon ULMASOVA. Emotsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari hamda ularni boshqarishda emotsional intellektning roli .....	178
<b>MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM .....</b>	<b>181</b>
Mohira TURDIYEVA. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish modeli.....	181
Zulfizar YUSUPOVA, Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiylashuvida jismoniy tarbiyaning ta'siri	185
Махфуза САДУЛЛОЕВА. Семантический субъект предложения .....	188
<b>FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH .....</b>	<b>191</b>
R. YO'LDOSHEV, L. MIRJALOLOVA. Ona tilidan ayrim mashqlarni bajarishning interaktiv usullari ...	191
Roza NIYOZMETOVA. Asar qahramonlari insoniy fazilatlarini o'rganish vositasi sifatida.....	194
<b>ANIQ VA TABIIY FANLARNI O'QITISH .....</b>	<b>197</b>
Ubaydullo ARABOV, Hamza ESHONQULOV. Katta ma'lumotlar (big data)ni tahlil qilish usullari .....	197
I. Khushmurodova. Modern information resources in the electronic library .....	202
Sanjar MARDOV. Qurilish chizmachiligi fanini o'qitishda talabalar fazoviy tasavvurini grafik dasturlar asosida rivojlantirishning metodikasi .....	206
Qavmiddin OMONOV. Geometrik girixlar va sirtlarning zamonaviy grafik dasturlar yordamida bajarib ta'lim jarayonida qo'llash.....	213
Раъно САЛОМОВА, Машхура УСМАНОВА. Развитие способностей учеников по системе обучения Маманазара Эргашевича Жумаева .....	216
Sayfulla NAZAROV, G'ayrat SHIRINOV, Sitorabonu JO'RAQULOVA. Kimyo darslarida interfaol jadvallardan foydalanish.....	220
Нодира АШУРОВА, Уткир ХАЗРАТОВ. Эффективность применения симуляционного обучения в медицинской практике студентов медицинских высших учебных заведений.....	224
Zarina MURODOVA, Firuza MURADOVA. Intellektual salohiyatga yo'naltirilgan topshiriq va masalalarni ishlab chiqish mexanizmi .....	228
G.I.SAYFULLAYEVA, S.X. MIRZAQANDOVA. Astronomiyadan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonini takomillashtirish orqali bo'lajak astronomiya o'qituvchilarining eksperimental kompetentligini rivojlantirish .....	235
<b>TASVIRIY SAN'AT VA MUSIQA TA'LIMI .....</b>	<b>238</b>
Qobil ABDULLAYEV, Manzura YULDASHEVA. "Avesto"dagi "Ashah vahishta" hamda "Yasa ahu vayru" mantrallari mazmuni va musiqiy ohanglari talqini .....	238
Maxmatmurod SHOMIRZAYEV, Kaxraman YULDASHOV. Milliy tarbiyada kashtachilikning o'rni .....	242
<b>JISMONIY MADANIYAT VA SPORT .....</b>	<b>246</b>
Jahon AXMEDOV. Sport umuminsoniy qadriyat hamda tarbiya vositasi sifatida .....	246
Rajab XALIMOV. Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi fanini o'qitishda qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari .....	251
Akram ABDULAXATOV, Farhod QULBULOV. Kurashchilar musobaqa faoliyatida: hujum, himoya, qarshi hujum va ogohlantirishlar .....	255
<b>QUTLOV .....</b>	<b>258</b>
Baqo UMAROV, O'ktam MARDONOV. Akademik N.A. Parpiyevning O'zbekistonda yaratgan koordinatsion birikmalar kimyosi ilmiy maktabi va uning istiqbollari .....	258
"Pedagogik mahorat" jurnali uchun maqolalarni rasmiylashtirish talablari.....	267

Roza NIYOZMETOVA

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti  
universiteti professori,  
pedagogika fanlari doktori

## ASAR QAHRAMONLARI INSONIY FAZILATLARNI O'RGANISH VOSITASI SIFATIDA

*Maqolada adabiyot darslarida asar qahramonlarining shaxsiy sifatlarini o'rganish, o'quvchini ma'naviy jihatdan boyitishga, badiiy matn ustidagi ishlarni to'g'ri tashkil etish va amalga oshirishda erishiladigan dars turlari haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** asar qahramoni, shaxsiy sifatlar, fazilat, ijtimoiy munosabatlar, metod, usul, adabiy tayyorgarlik, mustaqil va tanqidiy fikrlash, muammoli ta'lim, badiiy idrok.

*В статье рассматриваются типы уроков, которые можно извлечь на уроках литературы для изучения личных качеств главных героев, духовного обогащения читателя, а также для организации и проведения работы над художественным текстом.*

**Ключевые слова:** главный герой, личностные качества, качества, социальные отношения, метод, метод, литературная подготовка, независимое и критическое мышление, проблемное обучение, художественное восприятие.

*The article discusses the types of lessons that can be learned in literature lessons to study the personal qualities of the protagonists, to enrich the reader spiritually, and to organize and carry out the work on the literary text.*

**Key words:** protagonist, personal qualities, qualities, social relations, method, method, literary preparation, independent and critical thinking, problem-based learning, artistic comprehension.

**Kirish.** Yozuvchi adabiy asarda odamlar o'rtasidagi turli-tuman murakkab ijtimoiy-estetik munosabatlarni, odamlarning turli xil fazilatlarini, hayotning turfa lavhalarini o'zida mujassamlashtirgan qahramonlar obrazlari orqali tushuntirishga, inson hayoti, taqdiri shu munosabatlarda namoyon bo'lishini anglatishga harakat qiladi va badiiy tasvir vositalari yordamida yaqqol anglashiladigan qiladi. Bu jarayonlar bevosita va bilvosita amalga oshadigan muloqot tarzida ro'yobga chiqariladi. Bunda har bir insonga xos fazilatlar, xulq-atvor umumlashmasi tariqasida yaratiladigan obrazlar muhim rol o'ynaydi, ayni paytda asar qahramonlarining bir-biriga beradigan baholari, ularning xatti-harakatlariga munosabatlari, yozuvchining tushuntirishlari shaklida yana ham oydinlashadi, badiiy adabiyotga xos badiiy tasvirlar eng muhim omil – estetik tuyg'ularda o'z aksini topadi. Mavjud, shuningdek, endi yaratilayotgan, yaratiladigan qanchadan-qancha asarlar ana shu masalalarga bag'ishlanadi. Bu narsa ijtimoiy munosabatlar cheksiz, nihoyatda rang-barang ekanligini ko'rsatadi.

**Asosiy qism.** Bugungi kunda yuksak badiiy qiymatga ega asarlardagi qahramonlar obrazlari misolida yoshlarni ijtimoiy munosabatlar mazmuni, chunonchi, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va qabohat kabi talay tushunchalarning mohiyati bilan tanishtirish jarayoni amalga oshirilmoqda. Odamlar o'rtasidagi murakkab, ibratli, saboq olsa arziydigan ijtimoiy munosabatlar, shaxslarga xos axloqiy, intellektual fazilatlarini anglash, aniqlash, farqlash, mos so'z topib atash, odatda, katta qiyinchiliklar tug'diradi. O'quvchilarda bularni anglash layoqatini shakllantirish: muallifning so'ziga, qahramonlarning bir-birlariga beradigan baholariga tayanish, xulq-atvoriga o'z munosabatini ifodalash kabi ko'nikmalar ijtimoiy munosabatlarning tub sabablarini tushunishdan tashqari, turfa tushunchalardan mosi bilan atash imkonini beradi, shuningdek, o'qituvchining ta'limiy tadbirlari orqali joriylanadi.

Demak, ijtimoiy munosabatlarni, shaxsning xislatlarini ochuvchi so'zlarni asar qahramonlarining xatti-harakatlari, xulq-atvori orqali anglash va so'z topib atash ular anglatgan tushunchalarni bilish imkonini beradi. Lekin kichik yoshdagi o'quvchilarning bunday so'z boyligi chegaralangan bo'ladi. Shuning uchun maktabda bunday tushunchalar maxsus o'rganish ishlari rejali sur'atda amalga oshirilmog'i lozim. O'quvchi asar qahramonining xulq-atvori, odamlar bilan muloqoti, shaxsiy fazilati misolida hayot maktabini o'rganish vaziyatiga tushadi. "Xislatni to'g'ridan-to'g'ri atash bola tomonidan ularni qahramonning xulqidan yoki kechinmalaridan ajratishga doir maxsus urinishlarni talab etmagan holda oson o'zlashtirilishi kerakday tuyuladi. Lekin shaxsning fazilatlarini shunchaki atash yosh kitobxonga ta'sir eta olmaydi va uning yodida qolmaydi" [1]. L.N.Rojinaning aniqlashicha, axloqiy va irodaviy fazilatlardan shaxsiy g'urur hissi, g'urur, burch va mas'uliyat tuyg'usi, sabr-toqat, o'zini tuta olish, maqsad sari intilganlikni tushunish uchun ancha qiyin bo'lib chiqqan.

O'qituvchi o'quvchilarni u yoki bu adabiy qahramonning xulq-atvorini, shaxs sifatidagi fazilatlarini anglash sari yetaklab borar ekan, ularga ushbu qahramonning o'z xatti-harakatlaridan ko'zlagan motivlari va maqsadlarini chuqurroq tushunib olishga, qahramon obrazini teran va asarda tasvirlanganiga mos ravishda idrok etishga yordam berishi kerak. Qahramon o'z xulq-atvoridagi ba'zi jihatlar bilan kitobxonda o'ziga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otsa ham, unga nimaga taqlid qilish va nimaga taqlid qilmaslik lozim bo'lgan tomonlarini ajratish masalasida yordam berish kerak.

Ma'lumki, o'smir yoshida **odamlar orasidagi munosabatlarga** qiziqish yuzaga keladi. Bu davrda ijtimoiy munosabatlar kechinmalar uyg'otibgina qolmay, anglash va o'ylash predmetiga ham aylanadi. Lekin o'smirlar asar qahramonida yuz berayotgan jismoniy va aqliy, axloqiy o'zgarishlar tufayli o'zlarida yuzaga kelayotgan kechinmalarni ba'zan tushunmaydilar yoki yetarlicha tushunib yetmaydilar.

Asar qahramonlari kitobxonga tengdosh bo'lsalar, uni qahramonlarning bir-birlariga yordam berishga tayyorligi, bir-biriga bergan so'zlarining ustidan chiqishga harakat qilishlari, rostgo'ylikka intilishlari va boshqa fazilatlarini o'ziga tortadi, ayrim salbiy xislatlari ularni ranjitadi, ana shu xislatlarga qarshi turish tuyg'usini uyg'otadi.

Asar qahramoni fazilatlarini o'rganish ishi o'quvchini ma'naviy jihatdan boyitishiga shubha yo'q. Lekin uning o'z o'Ichovlari borligini ham unutmash kerak. Ta'lim jarayonida o'quvchiga asar qahramoniga mustaqil ravishda tavsif berish ishonib topshirib qo'yilsa, ya'ni o'qituvchi uni yo'naltirib turmasa, ba'zan noto'g'ri baholarini tuzatib bormasa, ma'naviy boyishda sustkashlikka yo'l qo'yiladi.

**Muhokamalar va natijalar.** Asar qahramonlarining fazilatlarini o'rganish ularning xatti-harakatlariga o'quvchi beradigan tavsifdan iborat bo'lishi ayon haqiqat bo'lsa-da, tavsifiy so'zlarni topib baho berishni uddalash nihoyatda qiyin, chunki yoshlar ayni shu so'zlarni juda oz biladilar, binobarin, bir qator fazilatlarini atashda ojizlik qiladilar. So'z-tushuncha bilan atalmagan fazilat tasavvur sifatida yodda qolib, quvchining hayotdan saboq olishiga yordam bersa-da, uning asar qahramoniga beradigan tavsifidan chetga qolaveradi. Bu o'rinda o'qituvchining tegishli so'zlarni ma'lum qilish yo'li bilan yordam ko'rsatishi muhim sanaladi.

"O'tmish asarlari o'quvchilar uchun tushunarli va ularning sevimli kitoblariga aylanishi uchun bugungi kunda o'quvchilarga tushunarli va yaqin "tayanch" muammolar, his-tuyg'ularni topib, ko'rsatib berish kerak" [2]. Darhaqiqat, yoshlarning quvonchi-yu tashvishlari, qayg'ulari-yu umidlariga tutash keladigan dolzarb muammolar ko'tarilgan asarlar ular ongida yuksak hayotiy prinsiplarning tiniqlashuviga yordam bera oladi.

H.Karimov akademik D.S.Lixachevning quyidagi fikrini o'rinli keltiradi: "...davr insonni chetlab, hech narsa yarata olmaydi. Davr inson va uning maqsadi orqali ta'sir omiliga aylanadi. Bunda u har kimga har xil ta'sir etadi" [3]. Boshqacha aytganda, har bir asar keng kitobxonlar ommasini nazarda tutib yozilsada, uni to'g'ri tushunish, muallif fikrlarini qabul qilish-qilmaslik, estetik ta'sirlanish xususiylik kasb etadi [4].

Badiiy asarlarda san'atkor inson ruhiyatining yangi qirralarini ochadi, "kashf etadi", boshqacha aytganda, yangilik yaratadi. Bu yangiliklarning asosiy qismi muayyan millatning olamni ko'rish va his etishi bilan ham chambarchas bog'liqdir. "Milliy mavqe (pozitsiya) har bir millatning axloqiy-estetik an'analari bilan belgilanadi. Asosan ayni shu an'analari har bir shaxsning kitobxonlik didi, uning hayotni obrazli idrok etish tizimi, o'zga adabiyotga beradigan bahosini shakllantiradi" [5]. Demak, badiiy adabiyot namunalari bilan tanishish zahirida shu adabiyotga ega bo'lgan xalqning milliy an'analari, qadriyatlarini, badiiy-estetik olami bilan ham tanishish demakdir.


Badiiy asar o'quvchi ongiga va qalbiga beradigan ozig'i bilan, dunyo haqidagi bilimlarini boyitishi, ma'naviy dunyosini kengaytirishi, go'zallik tuyg'usini o'tkirlashtirishi, hislarini tarbiyalashi bilan qimmatlidir. Yoshlarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o'rgatadigan darslar an'anaviy darslardan tubdan farq qiladi. Bunday darslarda o'quvchilar o'qituvchining aytganlarini bajaradigan obyektlikdan dars jarayonida faol harakatlanuvchi subyektlarga aylanadilar. Ular oldilariga qo'yilgan murakkab masala, savol, topshiriqlar ustida o'ylanadilar, izlanadilar, qayta-qayta badiiy matnga murojaat qiladilar, bir-birlari bilan fikr almashadilar, badiiy asar va undagi obrazlarni har xil rakurslarda tahlilga tortadilar. Bu jarayonda o'z-o'zidan o'quvchida badiiy matnga nisbatan ijodiy munosabat shakllanadi: uni qahramonning shaxsi, xatti-harakatlarini taftish qilishga undaydi.

"Adabiyot darslarining tarkibi, uning o'quvchilarga axloqiy-estetik ta'siri, vujudga keltiriladigan muammoli vaziyatlar mohiyati, rivojlantiruvchi ta'lim tizimida mazkur mashg'ulotlarning tutgan o'rni, o'ziga xos xususiyatlari, ijodiy va hissiy xarakter kasb etishi, o'quvchilarni mustaqil va tanqidiy fikrlashga undashi, o'quv predmetlarini integratsiyalash imkoniyati, dars shakllarining o'ziga xosligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi" [6].

**Xulosa.** O‘quvchilarni badiiy asar qahramonlarini baholashga o‘rgatuvchi adabiyot darslarining turli tiplari va ko‘rinishlari mavjud. Darsning alohida usullari maktab amaliyotida namoyon bo‘ladi. Bunday darslar o‘qituvchilarning amaliy faoliyatida alohida o‘rin egallaydi. O‘quvchilarni badiiy asar qahramonlarini tavsiflashga o‘rgatadigan darslar o‘z maqsadiga ko‘ra o‘quvchilarning tanqidiy hamda estetik tafakkurlari, badiiy his-tuyg‘ulari, badiiy asarni idrok etish ko‘nikmalari, obrazli tafakkurlarini o‘stirish, ular ongini timsollar yordamida boyitish, axloqiy, estetik, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma’naviy tarbiyalash, o‘qishga ijobiy munosabat uyg‘otish, badiiy asar va san’at namunalari bilan muntazam muloqot qilishga ehtiyoj hosil qilish, badiiy asarlarni mustaqil tahlil qilish, ularni baholay olish, qiziqarli badiiy asarlarni mustaqil izlab topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar**

1. Рожина Л.Н. Психология восприятия литературного героя школьниками (II-VII классы). – М.: “Педагогика”, 1977. – 53 с.
2. Баевский В.С. Вопросы методики воспитания литературного вкуса на уроках литературы в старших классах.-АКД пед.наук. –М., 1965. –19 с.
3. Karimov H. Hozirgi o‘zbek nasrida hayot haqiqati va inson konsepsiyasi (70-80-yillar). Filol.fan.doktori ... diss.aftoreferati. –Toshkent, 1994. – 3 bet.
4. Матжон С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар: Ўқитувчилар учун методик қўлланма. - Т.: Ўқитувчи, 1996. – 18 б.
5. Зальдинер М.А., Годоров Л.В., Губина Ф.И. Методика преподавания русской литературы в старших классах национальной (узбекской) школы. Под общей ред. проф. М.А.Зальдинера. – Т.: “O‘qituvchi”, 1980. – 26 с.
6. Boltayeva A.T. Badiiy asarlarni tanqidiy baholashga o‘rgatish texnologiyasi. –Toshkent: “ESSONG-PRESS”, 2020. -70 bet.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi  
“PEDAGOGIK MAHORAT”  
ilmiy-nazariy va metodik jurnali  
barcha ta’lim muassasalarini  
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, texnikum, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy  
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 208-xona

**Tahririyat rekvizitlari:**

Moliya vazirligi g‘aznachiligi  
23402000000100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017950100079002

*Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!*

<p><b>PEDAGOGIK MAHORAT</b></p> <p><b>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</b></p> <p><b>2021-yil 5-son (81)</b></p> <p><b>2001-yil iyul oyidan chiqqan boshlagan.</b></p> <p><b>OBUNA INDEKSI: 3070</b></p>	<p><b>Buxoro davlat universiteti nashri</b></p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p><b>Nashr uchun mas’ul:</b> <b>Alijon HAMROYEV.</b> <b>Musahhih: Muhiddin BAFAYEV.</b> <b>Muharrir: O‘g‘iljon Olloqova</b></p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 29.11.2021 Bosmaxonaga topshirish vaqti 30.11.2021 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 416 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“Sadriiddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.</p>
---	--	---